

# «Obuna» xizmatining taqdim etilish qoidalarini

Qoidalar 04.07.2024da amal qiladi

«Obuna» xizmati taqdim etilishining ushbu qoidalarini (keyingi o'rinlarda - Obuna va Qoidalar tegishlicha), keyingi o'rinlarda Humans deb nomlanadigan «Humans» MChJning noma'lum shaxslarga (manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'ch., 2 B uy, STIR 306624856) taklifi hisoblanadi.

## Atamalar

Qoidalar matnida bosh harflar bilan foydalaniladigan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalar ma'nosi [www.humans.uz](http://www.humans.uz) saytida joylashtirilgan Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlarida, Tarif rejalarida, Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalarida, "Humans mahsulotlari, ishlari va xizmatlari vitrinasi" servisidan foydalanish qoidalarida keltirilgan, agar ushbu Qoidalarda boshqa ma'no belgilanmagan bo'lsa.

**Servis** – ushbu Qoidalar doirasida taqdim etiladigan, ushbu Qoidalar ilovasida belgilangan xizmat. Ishtirokchi mavjud Servislar bilan Humans Mobil ilovasida, shuningdek [www.humans.uz](http://www.humans.uz) Saytida tanishishi mumkin.

**Ishtirokchi** – aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasi doirasida Humans xizmatlaridan, yoki "Humans mahsulotlari, ishlari va xizmatlari vitrinasi" servisidan foydalanish qoidalarini" ofertasi doirasida taqdim qilinadigan xizmatlardan foydalanadigan mijoz. Muayyan Servislarning tavsifi Ishtirokchilarga qo'shimcha talablarni qo'yishi mumkin. Masalan, bir qator Servislardan Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartlarini qabul qilgan holda Humans bilan Aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasini tuzgan Ishtirokchilar foydalanishlari mumkin. Xuddi shunday Obunaning ba'zi imkoniyatlaridan Humans Sodiqlik dasturining amaldagi ishtirokchilari foydalanishlari mumkin, agar ularning Humans Sodiqlik dasturidagi ishtiroki to'xtatilmagan yoki bekor qilinmagan bo'lsa.

**Hisob davri** - Obunada inobatga olingan Servisning ulangan sanasidan boshlab 30 kalendar kuniga teng davr.

**Trial davr** – 30 kunga teng vaqt davri (agar muayyan Servis tavsifida boshqasi belgilanmagan bo'lsa) Obunaga kiritilgan Servisni birinchi marta ulagan sanadan boshlab, bu davr mobaynida Servis bepul taqdim etiladi. Trial davr Servislarni Ishtirokchilar orasida ommalashtirish va ularning sonini oshirish maqsadida taqdim etiladi.

**Obuna** – Ishtirokchi tomonidan ushbu Qoidalarda belgilangan shartlar asosida har bir Hisob davri uchun muntazam to'lovga bir yoki bir nechta Servislarning ulanishi.

## 1. Obunalar haqida umumiy ma'lumot

1.1. Obunaning bir qismi sifatida Ishtirokchiga obuna va ushbu Qoidalar bo'yicha mavjud bo'lgan bir yoki bir nechta xizmatlarni to'lov evaziga ulash taklif qilinadi.

1.2. Obunaning bir qismi sifatida taqdim etiladigan muayyan Servislarning tavsifi ushbu Qoidalarning ilovalarida belgilangan.

1.3. Obunaning bir qismi sifatida taqdim etiladigan Servislar, shu jumladan, aloqa xizmatlariga qo'shimcha Servislar bo'lishi mumkin. Oxirgi holatda, servislardan foydalanish

bo'yicha munosabatlarga Humans aloqa xizmatlaridan foydalanish shartlari ham qo'llaniladi..

1.4. Bir qator Servislardan foydalanish uchun ularning tavsiflarida maxsus talablar va cheklovlar bo'lishi mumkin.

1.5. Ushbu Qoidalarda belgilangan umumiy shartlar, agar Servisning o'ziga xos tavsifida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, barcha servislar va ulardan foydalanish bilan bog'liq yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi.

1.6. Servisni taqdim etish muddati: u Ishtirokchi tomonidan ulangan paytdan boshlab Ishtirokchi tomonidan to'xtatilgunga qadar yoki ushbu Qoidalarda ko'rsatilgan sabablarga ko'ra Humans tomonidan Servis to'xtatilgunga qadar.

1.7. Obuna doirasidagi Servislar foyda olish maqsadi bilan bog'liq bo'lmagan faqat Ishtirokchilar tomonidan shaxsiy iste'mol uchun taqdim etiladi.

1.8. Servislarni barcha imkoniyatlari bilan to'g'ri ulash va ulardan foydalanish uchun Ishtirokchi o'zining abonent qurilmasiga Mobil ilovaning so'nggi versiyasini o'rnatishi va uni muntazam ravishda yangilab turishi kerak.

## **2. Obuna va Servislarni ulash**

2.1. Servislarning istalganiga obuna bo'lish Mobil ilovada Ishtirokchi tomonidan Mobil ilova interfeyslari tomonidan taqdim etilgan tegishli tugmani bosish orqali faollashtiriladi (shu jumladan, bepul sinov muddatiga ulanishni tasdiqlovchi tugma). Humans'ning aloqa markaziga murojaat qilib, obunani ulash va boshqarish ham mumkin.

2.2. Ulanish tugmasini bosish orqali Ishtirokchi ushbu Qoidalarni so'zsiz va to'liq qabul qiladi va ularni o'qib chiqqanligini va roziligini tasdiqlaydi. Ushbu Qoidalarning biror bir bandiga rozi bo'lmasa, Ishtirokchi Obunaning bir qismi sifatida Xizmatga ulanishdan bosh tortishi kerak.

2.3. Servisga ulanganda Ishtirokchi o'zining UZCARD yoki HUMO to'lov tizimining bank kartasi rekvizitlarini Mobil ilovaga kiritishi mumkin (Bank kartasini bog'lashni amalga oshirish). Buning uchun Ishtirokchi Mobil ilova interfeyslarida o'rnatilgan harakatlar to'plamini bajarishi kerak. Bank kartasini ulashda Ishtirokchi bog'langan bank kartasidan buyurtma qilingan Xizmatlar narxini, shuningdek ular bo'yicha qarzlari yoki jarimalarni to'g'ridan-to'g'ri hisobdan yechib olinishiga rozi bo'ladi.

2.4. Servisga (Obunaga) ulanish faqat Ishtirokchi ushbu Qoidalarning 3.6-bandda ko'rsatilgan Xizmat uchun to'lov manbalaridan biriga ega bo'lgan taqdirdagina mumkin.

2.5. Agar Ishtirokchi ilgari bunday Servisni ulamagan bo'lsa, Trial davr shartlari bilan Servis faqat bir marta ulanishi mumkin.

## **3. Obunani to'lash va Trial davr**

3.1. Bitta Hisob davri uchun Servisga to'lov miqdori ushbu Qoidalarning Ilovalarida muayyan Servis tavsifi bilan belgilanadi. To'lov miqdori amaldagi soliqlarni hisobga olgan holda so'mda belgilanadi.

3.2. Servisdan foydalanganlik uchun to'lov Hisob davri boshlanishidan kechiktirmay oldindan amalga oshiriladi. Servisga birinchi marta ulanishda oldindan to'lov Trial davrning oxirgi kunidan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak.

To'lov Ishtirokchiga har bir Hisob davrida, Ishtirokchi Servisdan bosh tortgunga qadar yoki ushbu Qoidalarda belgilangan tartibda Humans xizmatlarini to'xtatgunga qadar hisoblab chiqiladi.

Yangi Hisob davri boshlanishida Ishtirokchi ushbu Qoidalarning 3.6-bandida ko'rsatilgan to'lov uchun ruxsat etilgan manbalardan Hisob davri uchun to'lashga yetarli mablag' mavjudligini ta'minlashi kerak.

3.2. Trial davr davomida Servisdan foydalanish uchun to'lov olinmaydi.

Trial davr davomida, agar Ishtirokchi Servisdan foydalanishni davom ettirishni rejalashtirsa, Ishtirokchi bir Hisob davri uchun to'lov narxini to'lashi kerak. Trial davr tugaganidan keyingi birinchi kunida, agar Hisob davri uchun to'lov qilinmasa, Servisni ko'rsatish to'xtatiladi.

3.3. Humans Sodiqlik Dasturining faol a'zosi bo'lgan va Keshbek hisobiga ega bo'lgan Ishtirokchi undagi mablag'lardan Servis uchun to'lovni (shu jumladan qisman) amalga oshirish, shuningdek, Xizmatdan foydalanish bilan bog'liq qarzar yoki jarimalarni to'lash uchun foydalanish huquqiga ega. Ishtirokchining Keshbek hisobidagi mablag'lardan foydalangan holda Servisni olish Humans Sodiqlik Dasturi qoidalarida belgilangan ma'no doirasida Rag'batlantirish hisoblanadi. Ishtirokchining Keshbek hisobidagi mablag'lardan foydalangan holda to'lovni amalga oshirish uchun Ishtirokchi har bir ulangan Servis uchun Mobil ilovada bunday funksiyani yoqishi kerak. Bunday holda, pul mablag'lari Keshbek hisobidan avtomatik ravishda yechib olinadi.

3.4. Aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasi bo'yicha Humans'ning amaldagi mijoz bo'lgan Ishtirokchi Mijoz tomonidan Humans aloqa xizmatlari uchun oldindan to'lov sifatida to'langan va Shaxsiy kabinetda hisobga olingan mablag'larni Servis uchun to'lov (shu jumladan qisman) hisobiga o'tkazishi mumkin, shuningdek, Servisdan foydalanishda yuzaga keladigan qarzlarni to'lash va jarimalar uchun. To'langan Hisob davri oxirida Shaxsiy hisobda mablag'lar mavjud bo'lsa, hisob-kitob avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

3.5. Servislarni ulash orqali Ishtirokchi Mobil ilovada Ishtirokchi bog'lagan bank kartalaridan Obunalar uchun pul mablag'larini (ulangan Servislar uchun to'lovlar, shuningdek, Servislardan foydalanishda yuzaga keladigan qarzar va jarimalar) avtomatik yechib olinishiga va Avtoto'lov xizmati shartlariga rozilik beradi.

3.6. Hisob davri uchun to'lov quyidagi tartibda hisobdan yechiladi:

1. Ishtirokchining keshbek hisobi (mavjud bo'lsa, Keshbek hisobida mavjud bo'lgan miqdorda, lekin bir Hisob davri uchun to'lov summasidan ko'p bo'lmagan miqdorda);
2. Ishtirokchining shaxsiy hisobi (agar mavjud bo'lsa, Shaxsiy hisobda mavjud bo'lgan miqdorda, lekin bir Hisob davri uchun to'lov miqdoridan ko'p bo'lmagan holda);
3. Avtomatik to'lov yoqilgan bog'langan bank kartasi (agar mavjud bo'lsa, bank kartasida mavjud bo'lgan miqdorda, lekin bir hisob davri uchun to'lov miqdoridan oshmasligi kerak);
4. Boshqa bog'langan bank kartalari.

Hisob davri uchun to'lov vaqtida barcha mumkin bo'lgan to'lov vositalarida to'liq to'lash uchun yetarli miqdordagi mablag' mavjud bo'lsa, Obunani turli to'lov vositalaridan foydalangan holda bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat beriladi.

3.7. Har bir Hisob davridagi Servis to'lovni amalga oshirish va to'langan Hisob davri uchun Servisni uzaytirish vaqtida taqdim etilgan hisoblanadi.

3.8. Ishtirokchi o'z xohishiga ko'ra o'zi belgilagan miqdorda Servisdan foydalanganlik uchun oldindan to'lovni amalga oshirishga haqli.

3.9. Agar Ishtirokchining Servislar uchun qarzi bo'lsa, birinchi navbatda qarz to'lanadi. Obuna qarzi Mobil ilovada alohida va Ishtirokchining shaxsiy hisobi va Keshbek hisobidagi qoldiqdan alohida va mustaqil ravishda ko'rsatiladi.

#### **4. Servisni o'chirish**

4.1. Ishtirokchi istagan vaqtda Mobil ilovada yoki Humans aloqa markaziga murojaat qilib, Servisni taqdim etishni o'chirish huquqiga ega.

4.2. Agar Ishtirokchi Servisni o'chirib qo'ysa, Servis to'langan Hisob davri oxirigacha ko'rsatilishi davom etadi. Hisob davri mobaynida u o'chirilsa, Servis narxi qayta hisoblanmaydi.

Agar Ishtirokchi Trial davr davomida Servisni o'chirsa, Servis o'chirilgan paytda to'xtatiladi.

4.3. Agar Ishtirokchi to'langan muddat tugagandan so'ng Servis uchun to'liq to'lovni to'lamagan bo'lsa, Ishtirokchidan jarimani to'lashning bir davri uchun to'liq to'lov qiymati

miqdorida jarima undiriladi. Agar ushbu Qoidalarining 3.6-bandida ko'rsatilgan Ishtirokchining ruxsat etilgan mablag' manbalaridan birida mablag' mavjud bo'lsa, to'lov avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

4.4. Agar Ishtirokchi to'langan davrdan keyingi Hisob davri mobaynida Servis uchun to'lov qiymatini to'lamagan bo'lsa, Servisni ko'rsatish to'xtatiladi. Servis to'lanmagan Hisob davri boshlangan kundan boshlab o'chirib qo'yilgan hisoblanadi.

4.5. Agar mijoz to'langan Hisob davridan keyingi Hisob davri mobaynida, Hisob davri uchun Servis narxini to'lash uchun yetarli miqdorda mablag' kiritgan bo'lsa, Servis ko'rsatish muddati uzaytiriladi. Bunday holda, Ishtirokchi tomonidan to'langan jarima miqdori Servis narxiga o'tadi.

4.6. Ishtirokchi tomonidan ma'lum bir Servisga obunani o'chirib qo'ygandan so'ng, Ishtirokchi Servisni faqat ilgari ulangan Servislar uchun qarz bo'lmagan taqdirda qayta ulashi mumkin, shu jumladan hisoblangan jarimalarni to'lash bo'yicha.

4.7. Agar Servis aloqa xizmati bilan bog'liq qo'shimcha xizmat bo'lsa, Servisning to'xtatilishi aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi biror sababga ko'ra bekor qilinganda sodir bo'ladi.

4.8. Servisni taqdim etish Humans tomonidan bir tomonlama ravishda tugatilishi mumkin. Bunday holda, Servisni ko'rsatish to'langan Hisob davri tugagandan so'ng to'xtatiladi.

## **5. Yakuniy qoidalar**

5.1. Ushbu Qoidalar Humans saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Humans bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni o'zgartirish yoki Servisni taqdim etishni bekor qilish huquqiga ega, bu haqida Saytda tegishli xabarni joylashtirish orqali xabardor qiladi. Xabar berish sanasi tegishli ma'lumotlarning Saytda e'lon qilingan sanasi hisoblanadi. Saytda tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan paytdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan va Servis bekor qilingan hisoblanadi.

5.2. Ishtirokchining Servisga Humans Mobil ilovasida ulanishi jismoniy shaxslarga mo'ljallangan taklif bo'lgan ushbu Qoidalarga to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.

5.3. Ushbu Qoidalar va muayyan Servislarning tavsiflari bilan tartibga solinmagan qolganlari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi me'yorlari qo'llaniladi.

“Obuna” xizmatini taqdim qilish qoidalariga ilova  
"To'lovlar monitoringi" Servisi tavsifi

### **«To'lovlar monitoringi» servisi tavsifi**

«To'lovlar monitoringi» Servisining ushbu tavsifi (Keyingi o'rinlarda - Tavsif va Servis tegishlicha) «Humans» MChJning (manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'ch., 2 B uy, STIR 306624856) keyingi o'rinlarda - Humans, noma'lum shaxslarga taklifi va “Obuna” xizmatini taqdim etish Qoidalarining ajralmas qismi hisoblanadi.

### **Servisdan foydalanishning o'ziga xosliklari**

1. Servisdan foydalanib, Ishtirokchi Mobil ilovada bog'langan kartalar bo'yicha amaliyotlarni ko'rishi mumkin, shuningdek amaliyotlarning umumiy tarixida qidiruv uchun turli filtrlardan foydalanishi mumkin.

2. Ishtirokchilar Servisdan quyidagi shartlardan hech bo'lmaganda bittasini bajarishganda, foydalana olishadi:

- Ishtirokchi Mobil ilovaga hech bo'lmaganda bitta bank kartasini bog'lagan;
- Ishtirokchi Humans bilan Aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasini tuzgan;
- Ishtirokchi Humans'ning Sadoqatlik dasturining amaldagi ishtirokchisi.

3. Servisga birinchi marta ulanganda, Ishtirokchi Servisga ulangan oyning 1 sanasidan amalga oshirilgan amaliyotlar haqidagi ma'lumotni ko'ra oladi.

Servis faolligining butun davri monaynida barcha amaliyotlar amaliyotlarning umumiy tarixi va 2 bandda keltirilgan muayyan to'lov vositasi bo'yicha amaliyotlar tarixida aks ettiriladi. Servis doirasida amaliyotlar haqidagi ma'lumotni saqlashning maksimal muddati 1 yilni tashkil qiladi.

Servisga qayta ulanganda, Ishtirokchi oldin saqlangan barcha amaliyotlarni ko'ra oladi, jumladan bog'lanishi o'chirilgan kartalar bo'yicha ham.

Servisdan foydalanish vaqtida yangi bank kartasi bog'langanida, amaliyotlarning umumiy tarixida karta bog'languniga qadar ko'pi bilan bir oy oldin amalga oshirilgan amaliyotlar aksettiriladi.

4. Foydalanuvchi Mobil ilovada istagan bog'langan kartani o'chirishi mumkin. Ilovadan karta o'chirilganida, Servis o'chirilmagan bo'lsa, barcha avval aks ettirilgan amaliyotlar amaliyotlar tarixida ko'rinadi.

5. Servis taqdim etilishi mumkin bo'lgan bog'langan bank kartalarining maksimal soni - 10ta (o'nta).

6. Servisdan foydalanishning bir Hisob davri uchun narxi 1 500 so'mni tashkil qiladi.

7. Servis uchun trial davr 30 kun va Ishtirokchi tomonidan va Ishtirokchi Servisni birinchi marta ulagan sanasidan boshlab hisoblanadi, shu davr mobaynida Servis to'lovsiz taqdim qilinadi.

8. Servisni ulab, Ishtirokchi bog'langan kartalarning ma'lumotlari, bank kartalarida pul mablag'larining harakati va ulardan foydalangan holda amalga oshirilgan amaliyotlar haqidagi ma'lumotlarni Humans'ga taqdim etishga roziligini beradi.

9. Servisdan foydalanganda Ishtirokchi amallarni vijdonan bajarishi, uchinchi shaxslar huquqlarini buzmasligi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligining me'yorlariga rioya qilishi shart.

10. Har qanday asosda Servis o'chirilganda, Ishtirokchi Mobil ilovada Servis amal qilishi davrida o'tkazilgan amaliyotlarni ko'ra oladi, biroq bir qator funksiyalardan, masalan qidiruv uchun filtrdan foydalanib bo'lmaydi.